

EVRIKISHDAN BEGONALASHUVGACHA: ODAM VA JAMIYAT MUNOSABATI

Boboqulova Muattar

Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti,

Tarjima nazariyasi va amaliyoti fakulteti 402-guruh talabasi

Annotatsiya: Ushbu tezisda Frans Kafka va Alber Kamyu asarlari misolida inson va jamiyat o'rtasidagi murakkab munosabatlar yoritilgan. "Evrilish" va "Begona" asarlaridagi bosh qahramonlar – Gregor Zamza va Merso timsolida insonning jamiyatdan begonalashuvi, yolg'izligi va ichki iztiroblari ko'rsatib beriladi. Mualliflar insonning tashqi ko'rinishi yoki ruhiy holati jamiyatga mos kelmaganda, uni rad etilishi g'oyasini ilgari suradilar. Tezisda adabiyot orqali insonning ma'naviy holati, o'zligini anglash jarayoni va zamonaviy hayotdagi begonalashuv muammosi tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Kafka, Kamyu, Evrilish, Begona, inson, jamiyat, begonalashuv, ruhiy iztirob.

Abstract: This thesis explores the complex relationship between the individual and society through the works of Franz Kafka and Albert Camus. The main characters of The Metamorphosis and The Stranger — Gregor Samsa and Meursault — embody the themes of alienation, loneliness, and inner suffering. Both authors reveal how a person who does not conform to social norms, either in appearance or in spiritual state, becomes rejected by society. The study analyzes how literature reflects the human struggle for self-understanding, moral integrity, and the problem of alienation in modern life.

Key words: Kafka, Camus, The Metamorphosis, The Stranger, human being, society, alienation, spiritual suffering.

Adabiyot inson ruhiyati va jamiyat o'rtasidagi murakkab munosabatlarni ochib beruvchi eng nozik san'at turidir. XX asr adabiyotida Frans Kafka va Alber Kamyu shunday mualliflardandirki, ularning asarlari insonning zamonaviy jamiyatdagi

holatini, begonalashuvini, ma'naviy iztirobini chuqur yoritib beradi. Kafka qalamiga mansub **“Evrilish”** hamda Kamyu asari **“Begona”** bir qarashda bir-biridan butunlay farqli syujetga ega bo'lsa-da, ularni bog'lab turuvchi falsafiy zamin — insonning jamiyatdan ajralgan, yolg'iz, ichki haqiqatini ifoda etolmaydigan mavjudot sifatida tasvirlanishidir. Ikkala asarda ham markazda **begona holatga tushib qolgan inson** tasvirlanadi. Kafkaning Gregori Zamzasi bir kuni uyg'onganda o'zini ulkan hasharotga aylangan holda topadi. Kamyuning Mersosi esa tashqi dunyo va jamiyat normalariga mutlaqo befarq, o'z holatiga sodiq, his-tuyg'ularni yashirmasdan yashovchi shaxs sifatida namoyon bo'ladi. Har ikkala qahramon ham ijtimoiy hayotdan chetlab qolgan, tashqi ko'rinishlari yoki ichki olamlaridagi “g'ayritabiiylik” sabab jamiyat tomonidan rad etilgan obrazdir. Kafka Zamzani hayvon ko'rinishida, Kamyu esa Mersoni hissiy jihatdan “falajlangan” holda tasvirlaydi. Zamzaning tashqi ko'rinishi uni oila a'zolari uchun jirkanch mavjudotga aylantirsa, Mersoning sovuqqonligi (ayniqsa, onasining dafn marosimiga befarqligi) uni jamiyat uchun begona qiladi. Bu yerda mualliflar jamiyatning insoniylik mezonlarini ifodalaydi: **inson tashqi ko'rinishi yoki ichki dunyosi jamiyatga mos kelmasa, u rad etiladi.**

Kafka va Kamyu — absurd adabiyotining yirik namoyandalari. Kafka uchun absurd — insonning butun hayoti davomida noma'lum kuchlar bilan kurashishidir. Kamyu esa absurdni inson hayotining ma'nosizligi va bu holatni anglab yetgan ongli mavjudotning javobi sifatida ko'radi. Merso o'z hayotining ma'nosizligini qabul qiladi, u hayot va o'limni farqsiz holat deb biladi. Kafka esa Gregorni insoniylikdan ajratib, uni hayotning ibtidoiy darajasiga tushiradi — u oxir-oqibat jismonan ham, ruhan ham yo'q bo'ladi. Ikkala asarda ham shaxs o'z jamiyatida tan olinmaydi. Zamza avvaliga oila uchun muhim bo'lgan ishchi bo'lsa, hasharotga aylangach, u nafaqat foydasiz, balki ortiqcha yukka aylanadi. Merso esa jamiyat tomonidan yoqtirilmaydi, chunki u shablonlarga amal qilmaydi, yolg'on his-tuyg'ularni ko'rsatmaydi, odamlar kutgan “me'yoriy” reaksiyalarni namoyon qilmaydi. Shu boisdan ham, u sudda qotillik emas, “insoniylik” yetishmovchiligi uchun ayblanadi.

Evrilish va *Begona* — bu zamonaviy insonning jamiyat bilan ichki kurashini aks ettiruvchi, begonalik va shaxsiy haqiqat to‘qnashuvi haqidagi asarlardir. Kafka Gregor orqali inson tanasi va tashqi ko‘rinishining jamiyatdagi o‘rnini shubha ostiga olsa, Kamyu Merso orqali inson ruhiy dunyosining mustaqilligini, lekin bu mustaqillikning narxini ochib beradi. Har ikki asarda ham inson — bu jamiyat me‘yorlariga sig‘maydigan, o‘z haqiqatini yo‘qotgan yoki uni soxta ko‘rinishga almashtirmagan mavjudot sifatida aks ettiriladi. Bu esa mualliflar orqali absurd dunyoning ichki mexanizmlarini ochib beruvchi chuqur falsafiy qarashdir.

Badiiy asarning syujet tuzilmasida muhim o‘rin tutadigan unsurlardan biri — bu metamorfoza, ya‘ni evrilish hodisasidir. Ushbu usul og‘zaki ijod an‘analaridan kelib chiqqan holda yozma adabiyotga o‘ziga xos tarzda singdirilgan. Ayniqsa, sehrli va fantastik ertaklar tarkibida metamorfoza motivi asosiy dramatik kuch sifatida namoyon bo‘ladi. Bu holatda personajlarning tashqi yoki ichki o‘zgarishi, bir holatdan ikkinchisiga o‘tishi syujetning rivojiga turtki bo‘lib xizmat qiladi va asarning badiiy-estetik qiymatini oshiradi. Shunday qilib, metamorfoza nafaqat syujet dinamikasini ta‘minlaydi, balki xalq og‘zaki ijodidagi ramziy mazmunlarni yozma adabiyotga olib o‘tuvchi vosita vazifasini ham bajaradi. Garchi hikoya voqealari fantastik elementlarga ega bo‘lsa-da, ularning zamirida keskin ijtimoiy haqiqat, og‘riqli realizm yotadi. Asarda tasvirlangan jamiyatda inson faqat foydali bo‘lsa, harakat qilsa, ishlab tursa qadrlanadi. Aks holda, u darhol jamiyat nazarida ortiqcha yuk, buzilgan detal kabi ortga uloqtiriladi. Bu holat Grigorning boshiga tushgan achchiq taqdir orqali yaqqol namoyon bo‘ladi. U kasalligi tufayli ishlay olmay qolgan zahoti, avval ishxonasi, keyin esa oilasi undan yuz o‘giradi. Go‘yoki u hech qachon ularning hayoti uchun fidokorona mehnat qilmagan, hech qanday qadrga loyiq emas. Shu o‘rinda, inson uchun eng yaqin, eng suyuqli va mehribon bo‘lishi kerak bo‘lgan oila ham, Grigor foydasi qolmagach, uni rad etadi. Asardagi “hasharotga aylanish” esa bevosita real voqelik emas, balki kuchli ramziy ma‘noga ega majoziy obrazdir. Yozuvchi shu timsol orqali shuni ko‘rsatmoqchi bo‘ladi: inson jamiyat va yaqinlari uchun endi foydali bo‘lmay qolsa, uni kimsasiz hasharotdek chetga surib qo‘yishadi. Demakki, odamning ijtimoiy qadri

faqat uning foydaliligi bilan o'lganmoqda. Bu esa insoniylikka zid, chuqur axloqiy muammolarni yuzaga chiqaradi. Grigor ertalab uyg'onganida, o'zining g'ayrioddiy holatidan ko'ra, ishga kech qolayotganidan ko'proq xavotirga tushadi. Bu tafsilot uning ichki olamini ochib beradi: u butkul ishga, xizmatga, burchga bo'ysunib yashagan. U o'zining orzu-istaklarini, hayotini, his-tuyg'ularini oilasi va ishxonasining ehtiyojlariga qurbon qilgan. Yillar davomida u barchaga yordam bergan, mas'uliyatni yelkalariga yuklagan. Ammo uning boshiga kulfat tushganda, bu mas'uliyatni baham ko'radigan odam topilmaydi. Asardagi eng og'riqli manzara shundaki, Gregorning o'limi ham yaqinlariga yengillik keltiradi. Ularning qalbida na afsus, na armon seziladi. Bu esa insonning hayoti va qadr-qimmatini qanday qilib faqat mehnatga asoslanib baholanayotganini achchiq haqiqat sifatida ko'rsatadi. Kafka bu asarda o'z shaxsiy hayotidan ham motivlar kiritgan. Masalan, Gregorning otasi o'g'liga olma otadi va u olma Gregorning tanasiga sanchilgancha chiriydi. Bu epizod yozuvchining o'z otasi bilan bo'lgan ziddiyatli munosabatlarini anglatadi. Kafka bolaligidan yozuvchi bo'lish orzusida yurgan, ammo otasi uni savdo yoki boshqa amaliy kasblarni egallashga majbur qilgan. Bu bosim Kafka shaxsiyatida ruhiy chuqur iz qoldirgan va aynan "olma" obrazi orqali bu travma ramziy shaklda ifodalangan. Hikoya bizni shunga undaydi: inson o'z hayotining egasi bo'lishi, shaxsiy ehtiyoj va chegaralarini anglab yashashi kerak. Har qanday mehr-muhabbat, fidoyilik va burch hissi me'yorida bo'lishi zarur. Chunki haddan tashqari mas'uliyatni o'z zimmasiga olgan inson, oxir-oqibat atrofdagilar uchun shunchaki "foydali mexanizm"ga aylanadi. Va bu mexanizm ishdan chiqqan zahoti, hech qanday minnatdorliksiz chetga uloqtiriladi. Frans Kafka qalamiga mansub asarda bosh qahramon Gregor Zamzaning kutilmaganda noma'lum va yirik hasharotga aylanishi — absurd adabiyotining asosiy belgilaridan biridir. Bu o'zgarishning Gregor tomonidan hech qanday hayrat yoki isyonisiz, darhol qabul qilinishi esa aynan absurd voqelikni kuchaytiradi. Kafka bu o'zgarish orqali insonning faqat foydasi tegayotgan chog'idagina qadrlanishi, aks holda esa jamiyat va hatto o'z oilasi tomonidan rad etilishi holatini ochib beradi. Gregor ishlamay qolgan zahoti — ya'ni endi oila uchun daromad manbai bo'lolmay qolganida — oila a'zolari avvaliga

qo'rqadi, keyinchalik esa undan bezor bo'lib, nafrat va jirkanish bilan yuz o'giradi. Bu esa inson qadrligining faqat uning mehnatiga bog'lab qo'yilganini ko'rsatadi. Gregorning hasharotga xos bo'lgan o'jizligi, hayvoniy instinktlari uni tobora jamiyatdan yiroqlashtiradi va ruhiy izolyatsiyaga mahkum etadi. Kafka hikoyasi orqali metamorfozani, ya'ni evrilishni shunchaki fantastik voqea sifatida emas, balki chuqur ramziy ma'noga ega ijtimoiy-falsafiy hodisa sifatida tasvirlaydi. Bu o'zgarish qanday yuz bergani, qancha vaqt oralig'ida ro'y bergani aniq emas – bu tafsilotlar ataycha ochiq qolmaydi. Shunday noaniqlik orqali muallif metamorfozani oddiy va hatto muqarrar hodisa sifatida ko'rsatadi. Asar davomida butun voqealar faqat bir uy ichida, xususan Gregorning xonasida kechsa-da, ular butun jamiyatda sodir bo'layotgandek katta ijtimoiy makonni qamrab oladi. Ya'ni Zamzalar oilasi tasviri orqali Kafka jamiyatdagi muammolarni — foydalilikka asoslangan munosabat, begonalashuv, ruhiy iztirob va insoniy qadriyatlarining yemirilishini fosh etadi. Vaqt tasvirida ham o'ziga xos ikkilanish mavjud: Zamzalar oilasining hayoti, moddi qiyinchiliklarga qaramay, bir xil maromda davom etayotgan bo'lsa, Gregorning uchun vaqt deyarli to'xtab qolgan. U hayotdan uzilib, o'z xonasida yolg'izlik va ma'nosizlik girdobida qoladi. Uchinchi shaxsga aylanib qolgan qahramon o'z hayotini kuzatish bilan band. Hattoki u ilgari yoqtirgan ovqatlardan ham nafratlanadi — bu esa uning hayotiy ehtiyojlari va istaklarining so'nib borayotganidan dalolat beradi. Kafka Gregorning fojiali taqdiri orqali o'z hayotidan ham ruhiy lavhalar kiritgan. Otasi bilan bo'lgan murakkab munosabatlari, o'zini oilaviy mehrdan va e'tibordan mosuvo his qilishi yozuvchi uchun muhim ruhiy jarohatlar bo'lgan. Bu ichki iztiroblar badiiy shaklda Gregorning fojiaviy yakuni orqali ifodalanadi. Asarda syujet metamorfoza bilan boshlanadi, ammo bu evrilish orqaga, inson holatiga qaytish bilan emas, balki shu g'ayritabiiy holatda yakun topadi. Gregor, haqiqiy hasharotdek, karavot ostida yashirinadi, xona devorlarida o'rmaydi. Bu makoniy o'zgarish esa uning jamiyatdagi o'rnining yo'qolganini, chetda qolganini, hech kimga kerak bo'lmay qolganini ramziy ifodalaydi. Kafka qahramoni — bu begonalashgan inson, jamiyatga singa olmagan, ma'no izlayotgan, lekin hech qanday javob topolmay, oxir-oqibat o'zgina hayotini ham yo'qotgan shaxs

obrazidir. Asar inson va jamiyat o'rtasidagi murakkab munosabatlarni, insoniy qadriyatlarning yemirilishini, jamiyatning shafqatsiz mexanizmlarini keskin tanqid ostiga oladi.

Demak, inson o'z chegaralarini belgilashi, boshqalarning kutganlarini emas, o'z ehtiyojlarini ham e'tiborga olgan holda yashashi muhim. Aks holda, u nafaqat jamiyat, balki eng yaqin insonlari tomonidan ham qadrsizlanishi mumkin...

Alber Kamyuning "Begona" asaridagi bosh qahramon Merso orqali muallif jamiyat va insoniyat tabiatiga chuqur savollar qo'yadi. Go'dak inson borliqni qanday bo'lsa, shundayligicha qabul qiladi: his-tuyg'ularini yashirmaydi, qalbidagi barcha sezgilarini ochiq namoyon etadi. Biz bu holatni beg'uborlik deb ataymiz. Kattalar esa bu fazilatni saqlay olishmaydi, chunki ular jamiyatning ko'plab niqob va qoidalari bilan yashashga majbur bo'ladi. Ammo Merso bunday emas — u bolalardek yashaydi: soxtalikdan yiroq, qalbi qanday bo'lsa, hayotini shunga mos olib boradi. Atrofdagilarning u haqidagi fikrlari unga mutlaqo ahamiyatsiz. Hatto onasining o'limi yoki uning dafn marosimi ham unda chuqur tuyg'ular uyg'otmaydi. Merso o'z his-tuyg'ularini inkor etmaydi, biroq ularni tashqariga chiqarishga majburiyat sezmaydi. U jamiyat talab qilganidek ko'z yosh to'kmaydi, yolg'onchi samimiyat namoyish qilmaydi. Mersoning bu holati ko'pchilikni bezovta qiladi, chunki odamlar o'zlari yashiradigan niqoblardan Merso foydalanmaydi. U jamiyatning do'stona, mehrli ko'rinishga qaratilgan ko'pdan-ko'p ijtimoiy rollarini rad etadi. Aynan shu sababdan uni yo yoqlab, erkinlik ramzi sifatida ko'rishga, yo qoralab, sovuqqonlikda ayblashga uriniladi. Ammo haqiqat bu ikki qarash orasida — Merso butunlay yomon ham, mutlaq yaxshi ham emas. Uning chinakam erkinlik sari intilishi o'zicha bir falsafa. Ammo bu erkinlik ichida mehr-muhabbatga, insoniy iliqlikka joy yo'q. Shuning uchun u samimiy bo'lsa-da, sevgi uyg'otmaydi. Bolalarning samimiyligi qalbiy tuyg'ularining to'laligicha namoyon bo'lishidan kelib chiqadi. Ular atrofdagilar qanday baho beradi, deb emas, qalblari nimani sezsa, shuni ifodalaydi. Merso ham xuddi shunday yashaydi. Ammo bolalardan farqli ravishda, unda qalbiy iliqlik yo'q. Bu esa uni jamiyat uchun

begona qiladi. Uning qilmishlarida, hatto qotillikda ham pushaymonlik sezilmaydi. U o'z holatining rostligini inkor qilmaydi, lekin bu rostlikda insoniylik uchun muhim bo'lgan eng katta tuyg'u — shafqat yo'q.

Xulosa qilib aytganda, Merso jamiyatni oynadek aks ettiruvchi obraz bo'lsa-da, uning tuyg'ulardan yiroqligi va befarqligi jamiyat uchun qabul qilib bo'lmaz fojia sifatida ko'rinadi. Frans Kafka va Albert Kamyu ijodidagi *“Evrilish”* va *“Begona”* asarlari 20-asr insonining hayotga, jamiyatga va o'zligiga bo'lgan qarashlarini yangi badiiy bosqichga olib chiqdi. Har ikkala asar ham insoniylik, qadriyatlar, jamiyat va o'zlik muammolarini teran yoritib, zamonaviy adabiyotda o'ziga xos maktab yaratdi. Gregor Zamza — jismonan o'zgargani uchun begona bo'lgan inson, Merso — hissiy befarqligi bilan begonalashgan inson. Ammo har ikkisi ham o'z zamonasining yuzaki qadriyatlarini tan olmaydigan, jamiyat tomonidan “o'zgacha” deb rad etilgan shaxslardir. Ularning o'zga holati – biz uchun oynadek: inson qachon jamiyatga begona bo'lib qoladi

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Jo'rayva B.M. (2019) O'zbek xalq maqollari shakllanishining lingvistik asoslari va pragmatic xususiyatlari. Avtoreferat. – Samarqand.
2. Shomaqsudov Sh., Shorahmedov Sh. (1990) Hikmatnoma. – Toshkent: O'zbek Sovet Ensiklopediyasi Bosh redaksiyasi.